

O'QITUVCHINING ASOSIY VAZIFALARI VA SHAXSGA QO'YILGAN TALABLARI

Alimjonova Anora Farxod qizi

Zamonaviy texnologiyalar va menejment universiteti

email: anoraalimjonova5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagog va uning obrazi, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar va hozirgi zamon o'qituvchisi qanday bo'lishi kerakligi yoritib berilgan. Pedagogik mahorat o'qituvchi sifatining muhim tarkibiy qismi. Til bilimdonligi haqida ham to'xtalib o'tilgan. O'qituvchi bola qalbining injeneridir.

Kalit so'zlar: zamonaviy o'qituvchi, obrazi, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot ijodkor, notiq, tashabbuskor.

KIRISH

Ustoz misli yonib turgan shamga o'xshaydi. O'zi yonib atrofga nur-ziyo taratadi. Ma'lumki, hamma kasblarni ham avvalo ustoz-muallim o'rgatadi. Ustoz – ilm o'rgatuvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tarbiyalovchi murabbiydir. Dastlabki saboqni ham o'qituvchi beradi. Dastlabki ona-Vatan so'zlarining ma'nosini, mohiyatini ham o'qituvchi o'rgatadi. Shuning uchun ham barcha kasblar ichida o'qituvchilik-muallimlik kasbi o'ta sharaflilik va mas'uliyatli hisoblanadi. Zero, Prezidentimizning O'zbekistonda bugundan boshlab, eng hurmatli, eng e'zozli inson bu muallim yoki o'qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman deb ta'kidlab aytganlari o'qituvchilik kasbining nechog'lik sharaflilik kasb ekanligidan dalolat beradi. Mana shu o'rinda tabiiy ravishda savol tug'iladi. Xo'sh, o'qituvchi kim? U qanday sifatlarga ega bo'lmog'i lozim? Xususan, bugungi kun o'qituvchisi qanday malakalar bilan qurollantirilmog'i darkor?

ASOSIY QISM

O'qituvchi jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ishtirokchisidir. Shuning uchun ham respublikamiz **Prezidenti**

I.A.Karimov, Tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifiy ziyosidan bahramand etish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi lozim degan edi. Darhaqiqat, o'qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o'z kasb mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo'lmas ekan, u yaxshi ustoz-o'qituvchi bo'la olmaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, Prezidentimiz tomonidan olg'a surilayotgan barcha islohotlarning ijobiy yechimi va ana shu ko'p mingyillik ziyokorlik ishining samarasi bo'ldi. Shuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida o'qituvchilik kasbiga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda. Shuning bilan birga o'qituvchi oldiga qo'yiladigan talablar ham o'zgacha bo'lmoqda. Chunki bugun O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan, bu borada pedagog o'qituvchilarning o'z o'rni, o'ziga xos mohiyati borligini unutmaslik lozim.

O'qituvchilik kasbi yuksak sharaflilik kasbidir. Bu kasb hech bir kasbga o'xshamaydi. Taniqli rus pedagogi **A.S.Makarenko** o'qituvchilik kasbiga juda yuqori baho berib, unga shunday ta'rif beradi: „, Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin“. Bu ta'rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki, pedagog har tomonlama mukammal, o'quvchilar uchun ideal shaxs bo'lishi lozim. Hattoki, pedagogning kiyinishi ham bolalarni tarbiyalasin.

O'qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta'lim tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiy o'choqlarida topilgan tarixiy madaniy obidalar bu o'lkalarda o'qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko'rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar o'qituvchilik bilan shug'ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo'lishgan. Yunonistonda faqat ozod kishilargina o'qituvchilik qilishga haqli hisoblangan. Ular mamlakatning turli yoshlarida grammatiklar, pedanomlar, didaskallar, pedotriblar shaklida nomlanganlar va ko'pincha o'z shaxsiy maktablariga ega

bo'lganlar. Boy oilalarda esa, ta'lim-tarbiya ishi bilimli va savodli qullarga topshirilib, ular paydagoglar „**pedagog**“ so'zi shundan kelib chiqqan, ya'ni „bola yetaklovchilar“ deb atalgan. Rim imperiyasida o'qituvchilik imperator nomidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. O'rta asrlarga kelib, G'arb mamlakatlarida o'qituvchilik bilan, asosan, cherkov xizmatchilari shug'ullanishgan. Shaharlarda dunyoviy maktablar tashkil topgach, hunarmandchilik sexlari va savdogarlar gildiyalari tomonidan taklif etilgan yollanma o'qituvchilar paydo bo'ldi. Texnika taraqqiy etib, fikazdlar ko'payishi bilan o'qituvchilik eng ommaviy kasblardan biriga aylandi. Chunki ma'lum darajada ta'lim ko'rmagan odam texnika vositalaridan foydalana olmas edi. Buning uchun esa, ko'plab maktab va o'qituvchilar kerak bo'lardi. Ayni vaqtda, XVIII XIX asrlarda boy oilalarda murabbiy, guvernyor singari uy o'qituvchilaridan foydalanish keng yoyilgan.

XULOSA

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas'uliyatlar o'qituvchilardan talab qilinadi: O'qituvchi eng avvalo mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

- Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi.

- O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

- O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

- O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika ya'ni nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

- O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi;

- hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim.

Jargon, varvarizm, vulgarizm hamda konselyarizm kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi.

O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.
2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.

3. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига рухий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
 4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
 5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
 6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
 7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
 8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.
- Xudoyqulov Jamshid, O'QITUVCHI SHAXSIGA QO'YILADIGAN MUHIM TALABLAR , FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI: 2022: Special Issue on "LIFE LEARNING: NEW PARADIGMS AND EXPECTED RESULTS"
 - Qoraboyev Husniddin, Xudoyqulov Jamshid, BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SAVOL BERISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI , FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI: 2022: Special Issue on "LIFE LEARNING: NEW PARADIGMS AND EXPECTED RESULTS"
 - Academic Research, Uzbekistan 532 www.ares.uz ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-528-533